



MA'NAVIYAT – DARG'ALARI:
ASRLARDA SAQLANMAGAN ISM: NAVOIY ONASI SHAXSIGA
OID MANBALAR, TAXMINLAR VA ILMIY QARASHLAR

Hakimova Nargiza Feruz qizi

Toshkent davlat transport universiteti

“Tarjima nazariyasi va amaliyoti” yo`nalishi

TNR-5r-24 guruhi 2-bosqich talabasi

hakimovanargiza1234@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada Mir Alisher Navoiyning onasi haqida mavjud manbalar, Badoye' ul-bidoya asari va navoiyshunos olimlar fikrlari tahlil qilinadi. Maqolada Navoiyning onasi — Shayx Abusaid Changning qizi, Kobul amirzodalaridan ekanligi, uning oilaviy maqomi va shoir ijodiga bo'lgan ta'siri haqidagi taxminlar hamda faktlar ko'rib chiqiladi. Maqlolaning asosiy maqsadi: Navoiyning onasi haqidagi noaniq ma'lumotlarni bir joyga to'plash, ularning haqqoniyligini baholash va shu orqali shoirning bolalik muhiti va ruhiy shakllanishini yaxshiroq tushunishga hissa qo'shish. Maqola talabalar, adabiyot ishqibozlari va navoiyshunoslar uchun foydali bo'ladi degan umiddamiz.*

Kalit so'zlar: *Alisher Navoiy, tarixiy manbalar, navoiyshunoslik, Badoye' ul-bidoya, Navoiy onasi, oilaviy tarbiya muhiti, biografik taxminlar.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье анализируются имеющиеся источники, произведение «Бадое' ул-бидоя» и мнения специалистов-навоеведов о матери Мир Алишера Навои. В статье рассматриваются гипотезы и факты о том, что мать Навои — дочь Шейха Абусаида Чанга, происходившая из кабульских амирзодов, её семейный статус и влияние на творчество поэта. Главная цель статьи — собрать в одном месте неясные сведения о матери Навои, оценить их достоверность и тем самым способствовать лучшему пониманию детской среды и духовного становления*



поэта. Статья может быть полезна студентам, любителям литературы и специалистам по навоеведению.

Ключевые слова: Алишер Навои, исторические источники, навоеведение, «Бадое’ ул-бидоя», мать Навои, семейная обстановка, биографические гипотезы.

ABSTRACT: In this article, the existing sources about Mir Alisher Navoi’s mother, the work *Badoye’ ul-bidoya*, and the views of Navoi scholars are analyzed. The article examines the hypothesis and facts that Navoi’s mother was the daughter of Shaykh Abusaid Chang, belonging to the Kabul amirzodas, her family status, and her influence on the poet’s work. The main aim of the article is to gather in one place the uncertain information about Navoi’s mother, assess its authenticity, and thereby contribute to a better understanding of the poet’s childhood environment and spiritual formation. It is hoped that the article will be useful for students, literature enthusiasts, and Navoi specialists.

Keywords: Alisher Navoi, historical sources, Navoi studies, *Badoye’ ul-bidoya*, mother of Navoi, family upbringing environment, biographical hypotheses.

KIRISH

Bilmam, qanday ayol bo’lgan

Alisherning onasi.

Balki uning aqliga ham

Lol bo’lgan zamonasi.

Abdulla Oripov

Mir Alisher Navoiy — o‘zbek adabiyoti va ma’naviyatining beqiyos yulduzi. 1441-yilda Hirotda tug‘ilib, she’riyat, ilm, til va davlat boshqaruvining barcha sohalarida chuqur iz qoldirdi. “Xamsa”, “Xazoin ul-maoniy”, “Muhokamat-ul-lug‘atayn” va shu kabi ulkan asarlari bilan turkiy tilning adabiy maqomini yuzaga chiqardi, falsafa, tasavvuf, tarix va tilshunoslik yo‘llarini o‘ziga xos satrlari bilan boyitdi. Shoir ijodining gultojisi — g‘azallar, ruboiylar, nasihatli she’rlar va devonlardagi lirika orqali ifodalangan hayot, adolat, ma’naviyat va insoniylik — bularning barchasi uning xalq orasidagi obro‘cini mustahkamladi. Navoiy davlat



ishlarida faol bo'lib, madrasalar, kutubxonalar qurdirib, boshqalar uchun ilmiy maskanlar yaratgan shaxs sifatida ham tarixda so'nmas iz qoldirdi. Shunday buyuk zotni tarbiyalagan, butun madaniyat va ma'rifat olamida hanuzgacha Abu Said Changning qizi, G'iyosiddin Bahodirning sevimli rafiqasi, o'z davrida tanilib ulgurgan shoirlar Mirsaid Kobuliy, Muhammadali G'aribiyning fidoyi opasi, ulug' mutafakkir Alisher Navoiyning aziz onalari ismiga qiziqish yo'qolganiga qaramay, tarixiy manbalar va tazkiralardagi izchil bayonotlar uning shaxsiga hurmat va e'tiborni saqlab qolganini ko'rsatadi. Manbalarda aytilishicha, u Kobul amirzodalaridan bo'lgan Shayx Abusaid Changning qizi edi, bu orqali Navoiyning oilasi shoh saroyiga yaqin, bilim va adabiyotga hurmati oshiq bo'lgan muhitda shakllangan. Shu muhit, uning mehribon onasi tomonidan yaratilgan ma'naviy qoidalar, tartib-intizom va duolar, bolalik yoshlikdan boshlanib, Alisherning tafakkuri va san'atga bo'lgan ehtirosini shakllantirishda muhim rol o'ynagan.

MATERIALLAR VA MUHOKAMA

Alisher Navoiy o'zining birinchi rasmiy devoni — “Badoye' ul-bidoya”ga Husayn Boyqaro taxtga chiqqanidan so'ng tartib bergan. Ushbu devon Sharq adabiyotidagi devon tuzish an'analari asosida yaratilgan bo'lsa-da, unda Navoiy o'ziga xos jihatlarni ham kiritgan. Ayniqsa, devonning nasriy debochasi alohida ahamiyat kasb etadi. Unda shoir devon tuzish sabablari, o'z ijodining maqsad-muddaolari bilan bir qatorda, oilasi, xususan, ota-onasi haqida ham to'xtaladi.

Mazkur debocha, bir tomondan, Navoiy hayotining dastlabki davrlariga oid muhim ma'lumotlarni beradi, ikkinchi tomondan esa uning shaxsiyati va ijodiy shakllanishida oilaviy muhitning o'rni naqadar beqiyos bo'lganini ko'rsatadi. Shu bois, “Badoye' ul-bidoya”ni nafaqat badiiy, balki tarixiy-biografik manba sifatida ham o'rganish zarur. Navoiy “Badoe' ul-bidoya” devonida yozgan so'z boshisida, ularning oilasi temuriylar xonadoniga yaqinligini, o'zining “ota-onadan yetti pushtigacha”, “oliy darajali xonadonning samimiy xizmatchisi” ekanligini quyidagi satrlarda yanada aniqroq ifodalaydi:

“...Otam bu ostonning hokbezi,

Onam ham bu saro bo'ston kanizi.



Manga gar xud bo'lay bulbul va gar zog'

Ki ushbu dargoh o'lg'ay gulshanu bog'."

Mazkur parchadan ko'rinadiki, Navoiy ota va onasini ulug' saroy bilan bog'liq holda eslaydi, ularning xonadon sha'ni va ma'naviy-maishiy muhiti haqida ishora qiladi. Ayniqsa, onasini "saroy bog'ining kanizagi" deya tilga olishi, uning maqomini badiiy ramzlar orqali tasvirlashi alohida e'tiborga loyiqdir. Bu tasvirlar orqali shoirning bolalik muhiti, ruhiy shakllanishi va ijodiy olamining ildizlari namoyon bo'ladi.

Alisher Navoiyning shaxsini tushunish uchun uning bolaligi, taqdiri, keyinchalik shaxsiy hayotida iz qoldirgan tarixiy shaxslar, voqealar muhim ahamiyatga ega. Boshqa manbalarda ham, tarjimai holida ham shoirning onasi haqidagi ma'lumotlar keltirilmaydi. Ayrim adabiyotshunoslarning taxminiy ma'lumotlariga ko'ra, shoir onasining ismi Halima yoki Salima ekanligi aytib o'tiladi. U Qobulning amirzodalaridan Shayx Abusaid Changiyning qizi bo'lgan. Otasining ismiga qo'shilgan "amir" lavozimini inobatga olsak, u ham temuriylarga yillar davomida sadoqat bilan xizmat qilganligini tasdiqlaydi. Shoirning ota-onasi, aka-ukalari, u voyaga yetgan oilaviy muhit haqida tasavvurga ega bo'lish uchun ona tomonidan yaqin qarindosh bo'lgan tog'alari haqidagi ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Tog'alari haqidagi aniq ma'lumotni Alisher Navoiy o'zining "Majolis un-nafois" tazkirasida keltiradi: "Mir Said el orasida "Qobuliy" laqabi bilan mashhurdir, faqirg'a tog'oyi bo'lur. Yaxshi tab'i bor erdi, turkchaga moyli ko'proq erdi deya ma'lumot bersa, yana bir tog'asi Muhammad Ali (G'aribiy) haqida "Hush muhovada va xushxulq va xushta'b va dardmand yigit erdi. Ko'proq sozlarni yaxshi cholar erdi. Uni va usuli xo'b erdi. Musiqiy ilmidin ham xabardor erdi. Xututni (xatning ko'pligi) ham bitur erdi" deydi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotdan ularning xonadonida she'riyatga alohida mehr, xattotlik san'atiga e'tibor, musiqa ilmi chuqur o'rganilganligini bilib olishimiz mumkin. Otalarining ismiga "Changiy" taxallusining qo'llanishi ham bu xonadonda musiqa ilmiga e'tibor katta ekanligini tasdiqlaydi. Oila muhitidagi yuksak madaniyat, san'atga oshuftalik shoirning onasiga ham ta'sir etmasligi mumkin emas edi. Xuddi shunday ma'rifatli



muhit G'iyosiddin Kichkina avlodlari xonadonida ham davom etgan. Alisher Navoiyning ota-onasidagi she'riyatga qiziqish bo'lajak shoirning uch yoshidayoq she'r yod olishi tasodifiy hol bo'lmay, balki irsiyat bilan bog'liq desak ham bo'ladi.

Temuriylar davrida faoliyat olib borgan tarixchilar, oliy tabaqaga mansub ayollar, malikalar, ularga xizmat qilgan kanizlar, joriyalar, cho'rilar haqida ma'lumot berishda nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish tutgan. Lekin umumiy ishora tarzida berilgan ma'lumotlar ichkarida makon tutgan sohibalarning hayoti, his-tuyg'ulari, orzu-o'ylari, hatto iztiroblari va fojialarini tasavvur qilish imkonini beradi. Shohruh Mirzo, Abulqosim Bobur saroyidagi malikalarga bo'lgan munosabat boshqa xonlaru amirlarnikidan farq qilgan. Ularning saroyda tutgan mavqeiga qarab alohida saroy va ko'shklar, Hirotning orombaxsh va go'zal joylarida har biriga atab bog'lar barpo qilingan. Mazkur saroy va ko'shklar malikaga atab qurilganidan kelib chiqib, ayrim ma'lumotlar xalq orasida tarqalgan. Bu kabi bunyodkorliklar asosan mamlakatda hukm surgan tinchlik, osoyishtalik davrida amalga oshirilgan. Hirotidagi malikalarga yaratilgan shart-sharoitlarda shubhasiz, bosh malika Gavharshodbeginning o'rni beqiyos ekanligini muarrixlar e'tirof etadi. Ayniqsa, malikalarga xizmat qiladigan xodimlarni, kanizlarni tanlash, saroy ichkarisida bo'lib o'tadigan to'y-hashamlar, turli tadbirlar, ko'ngilochar mashvaratlar uning xohish-irodasiga qarab amalga oshirilgan. Aynan ana shu davrda G'iyosiddin Kichkina xonadoni temuriylar e'tiborida bo'lib, saroyning nufuzli oilalaridan biri hisoblangan. G'iyosiddin Kichkina taxminan 1438-1439 yillarda Shayx Abu Said Changiyning qiziga uylanadi. Bu nikohdan Shayx Baxlul, Alisher Navoiy va Darveshali dunyoga keladi. Ularning qizlari bo'lgan yoki bo'lmaganligi haqidagi ma'lumotlar biror manbada uchramaydi. G'iyosiddin Kichkina xonadoni, yosh oila Hirotida istiqomat qilganida mamlakatni temuriyzoda Shohruh Mirzo boshqargan. Qayd etish kerakki, ulug'larimiz qalamidan "Alisherning onasi" deb talqin qilingan tarixiy hamda badiiy lavhalarning guvohlik berishicha, Alisher Navoiyning onasi u ulug' zotning birinchi ma'naviy ustozlari ham bo'lgan. Biz va dunyo xalqlari o'tmishda ham, bugun ham bu ulug' onaga, bu ulug' ustozga, bu ulug' kayvoni ayolga, bu nurli nuqtaga ixlos, havas, umid bilan boqmoqda. Qadimiy



naqlardan birida aytilishicha, olamga va olam ahliga bobo-buvilari, ota-onalari tomonidan katta yaxshilik o'tgan bo'lsa, Yaratganning inoyati bilan shu avloddan, shu xonadondan shoh, mashhur ulamo, ijodkorlar yetishib chiqar ekan. Qarangki, ushbu qadimiy naqlga tushgan mashhur ijodkorlar safida Alisher Navoiyning ham nomi bor. Mazkur shonu sharafta onalarining duosi, xizmati, yaxshiligi tufayli abadiyatga daxldor zot bo'lib yetishgan Alisher Navoiy har birimizda iftixor tuyg'usini uyg'otadi.

NATIJALAR

Alisher Navoiyning o'zi urug'-aymog'i borasida deyarli, ma'lumot qoldirmagan. Faqat tog'alari Mir Said Kobiliy va Muhammad Ali G'aribiy, ukasi Darvishali haqida "Majolis"da biroz to'xtaladi, u ham bo'lsa, tazkira talabi nuqtayi nazardan juda qisqa. Otasi to'g'risida mavzu talab qilganda gapirishga majbur bo'lgan joylari bor. Masalan, "Majolis"da Mir Shohiy nomli shoir jasadi Astroboddan vatani Sabzavorga olib kelingan paytda otasi bu yerda hukumat ishlarini boshqarib turganini aytib o'tadi. Uning qancha hokimlik qilgani va Alisherlar oilasining Sabzavordagi hayotiga doir boshqa ma'lumot keltirilmagan. "Vaqfiya" asarida "bu xoksorning ota-bobosi Sulton Husayn Boyqaroning obo va ajdodi xizmatidakim, har bir saltanat konining gavhari va shujoat beshasining g'azanfari erdilar – ulug' marotibqa sazovor va biyik manosiqli komgor bo'lg'an erdilar", – deya o'zining nasb-nasabiga ishora etgan. Ammo negadir biron-bir asarida ota-onasi haqida aniq ma'lumot qoldirmagan. Hatto uning nomini hech qayerda tilga olmaydi. Tarixchi Abdurazzoq Samarqandiy "Matlai sa'dayn va majmai bahrayn" asarida shunday yozadi: "... Amir Alisherdirkim, qadim zamonlardan uning mukarram bobolari va ajdodi oliy amirlar qatoridan joy olgan edilar. Umarshayx mirzo ibn Amir Temur davrida ularning hayoti lavhiga ko'kaldoshlik baxti e'tibor qalami bilan yozib qo'yilgan". Ushbu asar hijriy 872 (mil. 1467-1468) – 874 (1964-1470) yillar orasida yozib tugatilgan va hijriy 875 (mil.1470) yili muallif uni yana davom ettirib, o'sha yilning safar oyida (1470, avgust) ro'y bergan voqealarni ham qo'shgan. Asarning navoiyshunoslik uchun ikki ahamiyatli jihati bor. Birinchidan, u Alisher Navoiy nomini tarixda ilk bor yozma



qayd etgan manba hisoblanadi. Shuning uchun undagi Navoiy hayotiga aloqador ma'lumotlar tarixiy fakt sifatida muhim. Ma'lumotlar qisqa axborot tarzda keltirilsa ham ulug' mutafakkir hayotini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Ikkinchidan, asar Navoiy nazorati ostida yakunlangan. Demak, Navoiy o'z haqidagi qaydlarni ko'rgan. Ma'lumotni nihoyatda qisqa berilishiga qaraganda, Navoiyning o'zi shuni ma'qul topgan bo'lishi mumkin. Balki shuning uchun ham o'sha davr manbalarida, ayniqsa, Navoiyning yaqin shogirdi, muarrix Xondamirning barcha tarixiy asarlarida ular deyarli, aynan, takrorlanib ortiqcha tafsilot bilan boyitishga jur'at etilmagandir. Davlatshoh Samarqandiy ham negadir o'z tazkirasida Navoiyning otasi to'g'risida juda qisqa to'xtaladi. "Navoiyning otasi Abdulqosim Boburning ishonchli kishisi Chig'atoy ulusi ulug'laridan edi", – deyish bilan kifoyalanadi. Ayni paytda u Navoiyning otasi harbiy bo'lganini ta'kidlab o'tgan.

Tadqiqotlar natijasida Alisher Navoiy davrida yaratilgan turli janrlarga mansub asarlarning birortasida ham ulug' amirning otasi haqida yetarli ma'lumot keltirilmaganiga ishonch hosil qildik. Shunisi taajjubliki, Navoiy vafotigacha yaratilgan barcha asarlarda Navoiyning otasi borasida yuqoridagi ma'lumotlarga qo'shimcha bo'ladigan fakt yo'q. Hatto "Ravzat us-safo" asarida uchramaydi. Navoiyning o'z ajdodi borasida qoldirgan mavhum ma'lumotlari va ko'kaldoshlik manbalarini aniq izohlab ketmaganligi uning nihoyatda kamtarona yo'l tutgani va kibru g'ururga berilmagani bilan izohlanar balki. 1501-yili Navoiy vafot etadi. Shundan keyingi davr manbalarida Navoiy haqidagi qiziqarli ma'lumotlarni ko'rish mumkin. "Habib us-siyar"da birinchi marta Navoiy otasining ismi tilga olinadi. Jumladan, Mirzo Ibrohim tomonidan Abu Sa'id mirzo huzuriga elchi yuborilganda ularga hamrohlik qilish Amir Alisherning otasi G'iyosiddin Kichkinaga topshirilganligi aytiladi. Shu o'rinda olimlarning ulug' amir xislatlari va faoliyatiga bag'ishlangan Xondamirning maxsus asari– "Makorim ul-axloq" shoir vafotidan so'ng yozilgan degan fikrini yana bir bor chuqur o'ylab ko'rish kerakka o'xshaydi. Shunday deb hisoblangan taqdirda "Habib us-siyar"da Navoiyning otasi haqida qo'shimcha ma'lumot berishga jur'at etgan Xonadamir "Makorim ul-axloq"da ham erkin fikr yuritishi mumkin edi. Lekin muallif Shohrux sulton vafotidan so'ng



Navoiyning otasi bola-chaqasi bilan Sheroz tomonga yo‘l olganini ayta turib, uning nomini tilga olmaydi. Balki “Makorim ul-axloq” Navoiy vafotidan avval yozila boshlagandir. Shuning uchun ham Xondamir asarda ustozni belgilab bergan chegaralardan chiqmagandir? Qizig‘i shundaki, “Ravzat us-safo”da ham Navoiy otasining nomi tilga olinmagan. Bu asar Navoiyning o‘z nazorati ostida yozilgani manbalarda tasdiqlangan. Demak, Navoiy ongli ravishda ota-onasi haqidagi tafsilotlarning berilishini xohlamagan ko‘rinadi. Sadriddin Ayniy yozadi: “Shoxruh mirzo saltanati davridagi katta amaldor va dong chiqargan lashkarboshilar tarixiy asarlarda nomma-nom qayd etilgan. Agar Alisherning otasi katta amaldorlar jumlasidan bo‘lganda edi, u davr tarixchilari nazaridan, xususan, “Ravzat us-safo” nomli tarixiy asarni yozgan Mirxondning nazaridan qolmas edi”.

Faxriy Hirotiyning “Latoifnoma”sida yoziladi: “Mirning tarjimai holidan xabardor mo‘ysafid tarixchilar va to‘g‘ri so‘zli dunyo ko‘rganlar o‘z asarlarida shunday keltiradilarkim Mirga amirlik mansabi merosiydir. Uning otasi Amir Kichkina sulton Abu Saidning xizmatida edi. Garchi muhru mansabi bo‘lmasa ham katta hurmatga ega edi. Ona tomondan bobosi Amir Shayx Abu Said Chang Mirzo Boyqaro xonadonida amir ul-umaro edi. Mir o‘n yoshligidan Bobur mirzo xizmatida bo‘lib, (sulton) uni farzandidek ko‘rardi. Mir zamon sultoni (Husayn Boyqaro) bilan maktabda hamsuhbat va hamsaboq edi. Ular qachon boshlariga baxt qushi qo‘nsa, bir-birlarini unutmaslikka ahdu paymon bog‘lashgan ekan”. Faxriyning tazkirasi Navoiy vafotidan so‘ng – 1521-1522-yili yaratilgan. Tazkira muqaddimasidagi ishoraga qaraganda, u mazkur ma‘lumotlarda kimdir suyangan. Balki Faxriy bizgacha yetib kelmagan qandaydir manbaga asoslangandir. Bu bizga qorong‘i. Biroq uning Navoiy bilan shaxsan tanish bo‘lgani va mushoiralarida qatnashgani uning ma‘lumotlari ishonchli ekaniga shuhba tug‘dirmaydi. Shunga qaramay, nega Navoiyning ona tomonidan bobosi ismini ko‘rsatib, ota tomoniga e‘tibor bermagani taajjublanarli. Bu esa Xondamir asarlaridagi ma‘lumotlar ruhiyatiga mantiqan bog‘lanmaydi. Gap shundaki, Faxriy Abu Said Changni Boyqaro xonadonida amir ul-umaro edi, deb ko‘rsatar, uning Navoiyga ona tomondan bobo ekanini ta‘kidlar ekanmi, Navoiy o‘zi e‘tirof etgan “ota-otadan yetti pushtg‘a degincha bu rafi”



dudmonning boyiri bandasi va bu vasi' ostonning mavrusi tug'masi, ya'ni bu xonzodaning xonavodasi va bu xonavodaning xonazodasi", degan mulohazaga binoan ota tomoni ajdodlari haqida ham albatta, ma'lumot berib o'tishi joiz edi. Bunday ma'lumotning yo'qligi Navoiyning ota tomondan ajdodlari haqida aniq fikr yuritish imkonini bermaydi.

XULOSA

Ushbu maqolada Mir Alisher Navoiyning onasi haqidagi tarixiy va adabiy manbalar — Badoye' ul-bidoya asaridagi debocha parchalari, tazkiralar hamda navoiyshunos olimlarning fikrlari — tahlil qilindi. "Badoye' ul-bidoya" nasriy debochasida keltirilgan satrlar, Navoiyning oilasi va ota-onasi maqomini, ayniqsa onasi saroy bog'ining kanizagi sifatida eslanishi, bola tarbiyasidagi muhit haqida muhim voqeliklarni aks ettiradi. Shunday bo'lsa-da, ona ismi va shaxsiy hayoti bo'yicha kengaytirilgan tarixiy ma'lumotlar kam; ba'zi adabiyotshunoslar Halima yoki Salima kabi taxminiy nomlar aytishadi, lekin bu fikrlar aniq ishonchli manbalarga asoslanmagan. Navoiyning asarlarida ota-onasi haqidagi tafsilotlarning kamligi va tarixiy tazkiralardagi bo'shliqlar, rivoyatlarning turli versiyalari — bular barchasi shoirning onasi haqida yanada chuqurroq va ehtiyotkorlik bilan izlanishlar zarurligini ko'rsatadi. Umuman olganda, Navoiyning madaniy va she'riy yuksalishida, tilga va adabiyotga bo'lgan mehrida onaning ruhiy-tarbiyaviy roli beqiyos bo'lgan. Bu ona obrazini yanada yaqqolroq ko'rsatish, uning shaxsini aniqlashtirish va uning Navoiyning ruhiyatiga ko'rsatgan ta'sirini tarixiy, qo'lyozma va arxiv manbalari yordamida batafsil bayon qilish kelajak tadqiqotlari uchun muhim yo'nalishdir.

REFERENCES

1. <https://zarnews.uz/uz/post/navoiyning-onasi-qaysi-malikaning-kanizi-bolgan>
2. <https://kh-davron.uz/yangiliklar/alisherning-onasi.html>
3. <https://xs.uz/uz/post/navoiyning-onasi-kim-bolgan>.
4. <https://tafakkur.net/badoyi-ulbidoya-1tom/1qism.uzb>